



# БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI KITOBGA BO’LGAN QIZIQISHINI UYG’OTISH USULLARI

*Salaeva M. S.*

*Urganch davlat universiteti, p.f.d., prof.*

*Shamuratova S.Q.*

*Urganch davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o’qituvchisi*

**Tayanch soʻzlar:** kitobxonlik, madaniyat, ma’naviy komillik, badiiy soʻz, badiiy adabiyot, kitob mutolaasi, kitobga qiziqish, doʻstlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, rostgoʻylik, mehr-muhabbat, ertaklar, xalq ogʻzaki poetik ijodi.

**Ключевые слова:** читательство, культура, духовное совершенство, художественное слово, художественная литература, чтение, интерес к книге, дружба, честность, мужество, трудолюбие, правдивость, доброта, сказки, устное поэтическое творчество.

**Key words:** reading, culture, spiritual perfection, artistic word, fiction, reading, interest in the book, friendship, honesty, courage, hard work, truthfulness, kindness, fairy tales, folklore poetic creativity.

Bugungi kunda oʻzbek oilalarida bolalarni kitobga muhabbatini uygʻotish, kitobni asrab-avaylab saqlashga oʻrgatish oila tarbiyasida dolzarblik kasb etmoqda. Sharq xalqlari hayotida kitobxonlik bu qadimiy anʼanalardan biri boʻlib, xalqning ma’naviy kamolotida muhim rol oʻynagan.

Kitobxonlik – ma’naviy komillik asoslaridan biri sifatida eʼtirof etilarkan, xalqimizning oʻzi qadar qadimiy tarixga ega. Buni ajdodlarimiz tomonidan uch yarim ming yil ilgari yaratilgan “Avesto” qismati yaqqol tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan mamlakattimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qoʻllab quvvatlash milliy dasturini 2020-2021-yillarda amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi” dasturi tasdiqlandi. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boyicha kompleks chora -



tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning bo'limlarida qarorda belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora - tadbirlar asosida rejali va maqsadli ishlar yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, mamlakatimiz bo'ylab "Yosh kitobxon oila", "Yosh kitobxon" tanlovlarining yo'lga qo'yilishi va g'olib kitobxonlar turli sovg'alar bilan taqdirlanishi bunga misol bo'la oladi.

Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun albatta oilada va maktabgacha talim tashkilotlarda bolalarni kitobga mehrini uyg'otish uni sevishga, asrab –avaylashga o'rgatishimiz lozim. Bunda ayniqsa, oilada bobo –buvisi, ota –onasining, maktabgacha talim tashkilotlarida esa tarbiyachi va pedagoglarning o'rni nihoyat kattadir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu yoshda ular juda o'yinqaroq bo'lishadi va tabiiyki, ularda mutolaa qilish ko'nikmasi shakllanmagan bo'ladi. Bu yoshda bolalarning e'tiborini rangli kitoblar, qahramonlar tasvirlangan chiroyli suratli kitoblar ularning diqqatini oshiradi. Bolalar kutubxonaga borganda ham birinchi rangli, suratli, kitoblar oldiga chopadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z, badiiy adabiyot katta ahamiyatga egadir. Bolalar xalq ertaklari, she'r va hikoyalar eshitishni juda yaxshi ko'rishadi. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zaligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachi yangi nashr qilinayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o'qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim.

Bolalarga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kitob mutolaa qilib berishning muhim vazifasi bu bolalarda asarlar mazmunini o'zlashtirib olishlarida, ularni to'g'ri tushuntirishlaridan iboratdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Ruhshunos D.V. Elkonin fikricha : "Bola hayot tarzining o'zgarishi, kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini farqlashga olib keladi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayoni barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi".[2.143.]



Shu munosabat bilan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" o'quv dasturida bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish uchun hikoya qilishga o'rgatish kerakligi va bu bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan.

Kichik guruh bolalariga hikoya va ertaklarni so'zlash o'rgatiladi, rasm mazmuni bo'yicha hikoyani (3-4gapdan iborat) takrorlash ko'nikmasi tarbiyalanadi, tanish ertaklardan olingan parchalarni sahnalashtirishda qatnashishga o'rgatiladi. Bu esa o'z navbatida bolalarni kitobga mehrini oshiradi.

O'rta guruhlarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi. Ta'limiy faoliyatlarda birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga, o'yinchoqlar, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi hikoya tuzishga o'rgatiladi. Ikkinchi yarim yillikda bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi. Bu ishlar natijasida bolalarning kitoblarga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish o'z navbatida bolaning psixologiyasi, ya'ni fe'l-atvorini bilmay turib amalga oshirilmaydi. [3.76.]

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil qiladi. Asosan ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi va shaxsiy individual xususiyatlari tarkib topa boshlaydi.

Pedagog olim A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu paytda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi. [1.2.]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash, tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalarini tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tortib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bundan tashqari har bir kitobxonning o'ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqishi mavjud bo'lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg'ab olishi lozim. [1.5.]

Mashhur shoirlar va yozuvchilar, pedagoglar A.Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, S.Dolimov, S.Rajabov, X.To'xtaboyevlar ifodali o'qishga yuqori baho



berganlar. Ovozli o'qish va so'zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo'lib, undan oilada ham keng foydalaniladi.

Mashhur pedagog A.S.Makarenko oilada ovozli o'qish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, imkoni boricha o'qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim.

Kitobxonlikni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmalikka asoslangan bo'ladi. Bolalar kitobxonligini bolalarning pedagogik- psixologik xususiyatlariga ko'ra, quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha);
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha);
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida badiiy xarakterdagi o'yinlardan foydalanish "asar mohiyatini chuqurroq anglash, bolalarning e'tiborini badiiy qiymatiga qaratish"ga yordam beradi. "Badiiy xarakterdagi o'yinlarning maqsadi asar mazmunini yangicha talqin etish yoki uning negizida yangi g'oyalarni yaratish" bo'lib, ular maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptiradi, qiziqishini oshiradi, shuningdek, fikrlash, mustaqil ravishda o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini tarbiyalaydi. [4.73.]

Kitoblarni fonografda tinglashni buyuk kashfiyotchi Toms Edison tomonidan taklif qilgan. Bugungi zamonga kelib, "audio kitoblar tobora mashhurlikka erishmoqda". Psixologik xususiyatlarga ko'ra bolalar uch guruhga bo'linadi:

1. Audistlar - eshitganlarini yaxshi eslab qoluvchilar;
2. Vizualistlar - ko'rganlarini yaxshi eslab qoluvchilar;
3. Kinestetiklar - bajarganini yaxshi eslab qoluvchilar.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, globallashuv jarayonida bosma kitobni o'qigandan ko'ra audio kitoblarni o'qishni afzal ko'ruvchilarni soni tobora ko'paymoqda. Ammo shu bilan birga audio kitoblardan foydalanish qulay bo'lgani bilan bir qator kamchiliklarga ega. Jumladan, "kitobni tinglayotganda inson onggi diqqatni bir yerga jamlamaydi. Matnni ko'rmay turib, kamroq narsa eslab qolinadi. Bu borada tajriba ham amalga oshirilgan: "bolalarga audio kitoblarni tinglash taklif etilgan. Ular boshqa ish bilan shug'ullanmay, ataylab kitobga quloq solishgan. Ammo baribir eslab qola olishmagan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kitobga qiziqtirish uchun audiolardan, AKTlardan,

